



UMUMIY O'RTA VA O'RTA MAXSUS TA'LIMDA "TARBIYA" FANINI O'QITISHDA TARBIYAVIY TRENINGLARDAN FOYDALANISH

Dexkanova Ma'mura Ulmasovna¹

"Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrası professori v.b.

¹Toshkent davlat pedagogika universiteti

Abdurahmonova Iroda²

²TDPU 1-bosqich talabasi

Sharifova Zuhra Komil qizi³

³TDPU 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7514742>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-yanvar 2023 yil

Ma'qullandi: 07-yanvar 2023 yil

Nashr qilindi: 09-yanvar 2023 yil

KEY WORDS

ta'lim-tarbiya jarayoni, trening, texnologiya, tahsil oluvchilar, "Qadriyatlar" treningi, "Tanishuv" treningi, "Og'zaki jurnal" treningi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonlarda o'quvchilarning o'quv- bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan treninglar, ularning ahamiyat va o'rne, tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish jarayonida treninglardan foydalanish yo'llar bayon etilgan.

Mamlakatimiz tez rivojlanayotgan, o'z istiqbolini o'ziga xos yo'l bilan yaratayotgan davlatlardan biridir. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadri-qimmatini va uning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, adolat va qonun ustuvorligi – xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta'minlash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy va ma'rifiy sohalarida islohotlarni amalga oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan [2].

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda [6, 15].

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonlarda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan ko'plab o'qitish texnologiyalari va treninglardan keng qo'llanilmoqda. Jumladan: muammoli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, loyiha, keys, ish faoliyatini ifodalovchi turli o'yinlar, treninglar, bahs-munozaralar (nuqtai nazar, tok shoular) ni tashkil qilish va hokazolardir [7, 8, 9].

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish jarayonida ayniqsa treninglarning o'rne beqiyosdir. Trening-bu talabalarning faol aqliy va nutq faoliyatiga asoslangan darsdir.

Trening – (ingliz tilidan training-train – o'qitmoq, tarbiyalamoq degan ma'noni anglatadi [3]. Ushbu mashg'ulotlarda nazariy ma'lumotlarni amaliy mashqlar orqali o'zlashtirilishini ta'minlaydi. U ta'lim beruvchi tomonidan o'qitishni emas, balki tahsil oluvchi tomonidan mustaqil va faol o'rganishni ko'zda tutadi. O'rganilishi lozim bo'lgan nazariy bilimlar amaliy ish hamda mashqlar davomida o'zlashtirish imkoniyatini beradi va komanda

bo'lib bir yoqadan bosh chiqarib ishlashga o'rgatadi.


Trener vazifalari:

- treningni maqsadini shakllantirish, strategiyani va metodlarni tanlash, trening algoritmini va axborot materiallarini tayyorlash, natijalarni baholash;
- tahsil oluvchilarni mustaqil faoliyati va hamkorlikdagi faoliyat asosida bilimlarni o'zlashtirishga erishish;
- har bir tahsil oluvchi ishtirokini kuzatish va amaliy harakatlar asosida muayyan kompetensiyalarni shakllantirish.

Trening quyidagi bosqichlarida amalga oshiriladi: Yaxshi trening o'tkazishning bir nechta tarkibiy qismlari mavjud. Izyuminka. Qatnashuvchilar uchun natijalarini ta'kidlash. Interfaol. Debrifing (xulosa) baholash. Bu – treningni baholash qismidir. “Qatnashuvchilar nimani o'rgandilar?”. Trening davomida o'rganganlari yoki ko'rsatganlari natijalar bilan mos kelishini tekshiriladi [3]. (1-rasm).

1-rasm.

Treningni o'tkazish bosqichlari



Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limda “Tarbiya” fanini o'qitishda quyidagi tarbiyaviy treninglardan: tanishuv, qadam-baqadam, sahna, o'yin, og'zaki jurnal, zararli odatlar muzeyi, muammoli o'quvchi, kontakt, qadriyat treninglardan foydalanish o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini Vatan oldidagi huquq, burch va majburiyatlarini anglash, Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash kabi kompetensiyalarni shakllantirishning yuqori samarali strategiyalardir [10, 11, 12].

“Tanishuv” treningi - o'quvchilarni bir-biri bilan tanishtirish, do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, ularning ijodiy imkoniyatlari va shaxsiy sifatlarini ochish, jamoada ishlash uchun qulay sharoit vujudga keltirish hamda o'quvchilar o'rtasida ruhiy to'siqlarni yengishga yo'naltirilgan.

“Qadriyatlilar” trening mashg'uloti.

Mashg'ulot tavsiya etiladigan holatlar: guruhiiy psixokorreksion faoliyatda hamda individual psixokorreksion faoliyatda qo'llanilishi mumkin bo'lib *qadriyatlar tizimida yuzaga kelgan buzilishlarni, *shuningdek motivatsion sohani rivojlantirishda va psixologik

resurslarni shakllantirishda foydalaniladi [14, 16].

1-qadam. Ishtirokchilarga 6 tadan stiker (yoki kichik oq varaqchalar) beriladi va ularning har biriga bittadan o'zining hayotdagi eng asosiy qadriyatlarini (hayotdagi eng muhim va qadrlil deb hisoblaydigan narsa va omillar) yozib chiqish so'raladi. Ishtirokchilarga qadriyat degan so'zni mohiyatini tushuntirib o'tish bu yerda foydadan holi bo'lmaydi, chunki odatda bola va o'smir yoshidagilarda qadriyatlar mavjud bo'lsada, qalbidagi muayyan his-tuyg'ularning qadriyat ekanligini anglab yetmaydilar. Odatda ularning ongida qadriyatlar "kerakli narsa, muhim narsa" tarzida namoyon bo'ladi.

2-qadam. Ishtirokchilarni yozgan qadriyatlarini muhimligi bo'yicha 1-2-3...6- tarzida darajalash so'raladi.

3-qadam. Ishtirokchilar har bir qadriyatining nega aynan 1- yoki 2-o'ringa qo'yganini hamda qadrlilik va muhimligi sababini aytib berishlari (yoki o'sha varaqning ortiga yozishlari) kerak.

Mashg'ulot individual o'tkazilganda o'smirning har bir qadriyati trener bilan muhokama qilinsa, mohiyatini ochishga harakat qilinsa maqsadga muvofiq.

Guruhiy o'tkazilganda kichik guruhlarda ishlash uchun guruhda birdamlik va jamoaviylik, o'zaro tushunish simpatiya yaxshi shakllantirilgan bo'lishi lozim.

"Og'zaki jurnal" treningi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi. Mashg'ulot tarbiyachining yaqinlashib kelayotgan xalq bayrami yoki guruh o'quvchilari yoki reja asosida o'tkaziladigan tadbir haqidagi suhbatdan boshlanadi. O'quvchilar yoki tarbiyachining taklifi asosida (og'zaki savol-javob yoki yozma shaklida) biron-bir tadbir belgilab olinadi. So'ngra, ushbu tadbirda nimalar haqida so'z yuritilishi, qanday chiqishlar bo'lishi, avval shu kabi o'tkazilgan tadbirdan nimasi bilan farqlanishi, uni qanday tashkil etish, o'tkazish, barchaning ishtiroki qanday bo'lishi haqidagi fikrlar almashinadi. Bir to'xtamga kelingandan so'ng, tarbiyachi o'quvchilar bilan birgalikda tadbirning mantiqiy ketma-ketligini, ya'ni rejasini belgilab oladi. Masalan: "Navro'z-bahor bayrami" mavzusidagi bayram tayyorlanishi mo'ljallangan bo'lsa, tarbiyachi o'quvchilar bilan o'z suhbatini quyidagicha tashkil etishi mumkin: «Hurmatli o'quvchilar, biz, "Navro'z" haqidagi bilganlarimizni og'zaki hikoya shaklida fikrlashib, uning umumiy rejasini tuzib olamiz. "Navro'z" haqidagi hikoyamizni nimadan boshlash kerak? Qanday ketma-ketlikda bo'lishi kerak? Yoki qanday sahifalardan iborat bo'lishi kerak? degan savollarga javob topa olishimiz kerak». Kirish so'zidan so'ng "Aqliy hujum" uslubidan foydalangan holda, tarbiyachi, o'quvchilar tomonidan erkin aytilgan barcha fikr, mulohaza va g'oyalarni vatman yoki doskaga yozib boradi. "Navro'z - bahor bayrami» og'zaki jurnali (guruhlar tomonidan umumiy muhokamada kelishilgan holda tuzilgan reja-loyiha) taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

1-sahifa. - "Assalom, Navro'z!" sahifasi. Bu sahifada Navro'z bayrami, uning tarixi, o'ziga xos xislatlari, tabiati, boshqa bayramlardan farqi, uning go'zalligi, tarovati haqidagi ma'lumotlar adabiy-musiqaviy kompozitsiya shaklida, ko'klam ko'rinishlari, videofilm, bahoriy kuy yoki qo'shiqlar ishtirokida tayyorlanadi va o'tkaziladi.

2-sahifa. - «Navro'z va bahor fasli bayramlari» sahifasi. Bu sahifada Navro'zning kichik bayramlari "Qushlar bayrami", "Boychechak bayrami", "Tolbargak bayrami", "Ko'k maysa bayrami", "Varraklar bayrami", "Aytishuvlar bayrami", stuningdek, shu faslda tavallud topgan buyuk allomalar, donishmandlar va mutafakkirlar hamda O'zbekistonda nishonlanadigan xalq

bayramlari haqidagi ma'lumotlar tadbirda ishtirok etayotganlar bilan jonli muloqot, savol-javob, intervyu shaklida yoki filmlar, slydlar namoyish qilish orqali ko'rsatilishi mumkin.

3-sahifa. - «Navro'z dasturxoniga» sahifasi. Bu sahifada Navro'z bayrami dasturxoniga tayyorlanadigan bahor taomlari, ularning tarixi, tayyorlanishi, dasturxonga tortilishi, mehmon kutish haqidagi ma'lumotlar taomlar ko'rgazmasi yoki "oila dasturxoniga" yoki "oshpazlar, qandolatchilar", "bahoriy salatlar" tanlovlari, sahna ko'rinishi o'quvchilar ishtirokida ularning amaliy ijrosi orqali namoyish etilishi mumkin.

4-sahifa. - "Navro'z - do'stlik, qardoshlik bayrami" sahifasi. Bu sahifada ta'lim muassasida tahsil olayotgan turli millat vakillarining chiqishlari (yoki o'quvchilarning o'zlari shu rollarda), ularning milliy urf-odatlar, liboslari, san'atlari, an'analari haqidagi ma'lumotlar "Do'stlik festivali yoki karnavali" shaklida tayyorlanadi va o'tkaziladi.

5 - sahifa - «Navro'z - baxt-saodat, shodlik bayrami» sahifasi. Bu sahifa xalq sayli shaklida tayyorlanadi va o'tkaziladi. Xalq saylining barcha unsurlari: uloq, kurash, folklor qo'shiqlari, o'quvchilar folklori, qo'g'irchoq o'yini, mushoira, aytishuvlar, lapar qo'shiqlar, askiya, topishmoqlarni o'z ichiga oladi; tantanali bayram barcha kerakli texnikaviy vositalar, atributlar, kiyimlar bilan namoyish etiladi.

6 - sahifa - «Navro'z va bahor liboslari» sahifasi. Bu sahifa "Modalar teatri" ko'rinishida o'quvchilar ishtirokida tayyorlanadi va o'tkaziladi. O'quvchilar milliy liboslar, bayram liboslari, kundalik va ish liboslari, quyoshli va yomg'irli kunlarning liboslari, o'quvchilar, yoshlar va kattalarning bahoriy kiyimlari, taqinchoqlarini qo'shiqlar ostida namoyish etadilar. Mehnat tarbiyachisi yoki o'quvchilardan biri namoyish etilayotgan liboslar, poyfzallar, taqinchoqlarga mutaxassis sifatida fikr bildirib boradi (bu sahifada o'quvchilar o'zlari tikkan kiyimlarni ham namoyish etishlari yoki ularning ko'rgazmasini tashkil etishlari mumkin). Shu sahifada boshqa millat vakillarining milliy liboslari haqida ma'lumot berilishi yoki ko'rsatilishi mumkin. Guruhlarning chiqishlari tugagach, tarbiyachi o'quvchilar bilan birgalikda namoyish etilgan sahifalarning ijobiy va salbiy tomonlarini muhokama qiladi, ulardan ushbu shakldagi tadbir ularni nimaga o'rgatgani va ular nimalarni bilib olishgani bilan qiziqadi. Kerakli tavsiyalar va tushunchalar beradi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

Shunday qilib, trening o'tkazish jarayonida tahsil oluvchilar motivatsiyasi yuqori bo'lib, do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, ularning ijodiy imkoniyatlari va shaxsiy sifatlarini ochish, jamoada ishlash uchun qulay sharoit vujudga keltirish hamda o'quvchilar o'rtasida ruhiy to'siqlarni yengish, muloqotga tez kirisha olish ko'nikmalari shakllanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 - noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF - 6108 - son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli Farmoni.
3. Dexkanova M.U. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.T.: 2019
4. Dexkonova M.U. "Issues to increase the efficiency of pedagogical activity in higher education" Sciences of Europe (Praha, Czech Republic) VOL 2, No 72 (2021). ISSN 3162-2364.
5. Ulmasovna D.M., & Behruz, B. (2022). The role of modern educational technologies in the teaching of legal sciences. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal,

12(1), 305-309.

6. Салаева М.С. Ўзбекистонда олий таълим мазмунини модернизациялаш стратегияси / «Замонавий олий ўқув юрти модели – муаммо ва вазифалар». Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. ТТЕСИ. 2006. - Б. 37-41.
7. Салаева М.С. Таълим жараёнига лойиҳалаш методини татбиқ этиш муаммолари // Педагогик маҳорат. № 4. 2003. БухДУ. – Б.39-41.
8. Салаева М.С. Даражали табақалаштиришнинг ижобий ва салбий жиҳатлари / «Умумий ўрта таълим мактабларида табақалаштириб ўқитиш муаммолари» Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. –Т.: ЎзПФИТИ. 2003 йил 19-20 ноябрь. –Б. 115-117.
9. Салаева М.С. Таълим мазмунини прогнозлашда амал қиладиган метод ва тамойиллар // Халқ таълими № 5. 2005. –Б.40-43.
10. Салаева М.С. Таълимга модулли ёндашув ва унда модулли дастурларни лойиҳалаштириш муаммолари / «Таълим жараёнини сифатли ташкил этишда илғор педагогик технологияларнинг роли» мавзуидаги Республика илмий-амалий конференцияси. Ўрта махсус касб-хунар таълим маркази. 2008. –Б. 162-164.
11. Салаева М.С., Мамирова Н. Модулли ёндашув таълим жараёнини лойиҳалаштириш сифатида / «Чарм буюмлар дизайни ва технологиясини ривожлантириш ва такомиллаштириш» «Пойабзал - 2008» мавзуидаги Республика илмий-амалий конференцияси. 25-26-сентябрь 2008. –Б. 290-295.
12. Салаева М.С., Мамирова Н., Шербобоева Ш. Таълим жараёнида талабаларни ўз-ўзини бошқаришга ўргатиш ижтимоий фаоллик омили сифатида / «Фаол ёшлар миллат фахри» Республика илмий-назарий анжумани материаллари, ГулДУ. 2008 йил 18 июнь. –Б. 95-96.
13. Салаева М.С., Астанкулова Н.А. Олий таълим муассасаларида педагогик ва ахборот технологияларини жорий этиш имкониятлари // Maktab va hayot. № 1. 2010. – Б. 26-27.
14. Салаева М.С. Представление проблемной ситуации в виде задачи как психологическое средство мышление в младшем школьном возрасте / «Boshlang'ich ta'limning dolzarb muammolari» Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. – Urganch: 2011 yil 11 aprel. – В. 90-92.
15. Салаева М.С. Ўзбекистонда олий таълим мазмунини янгилашнинг ижтимоий-маданий омиллари // Maktab va hayot. № 1. 2011. – Б. 24-26.
16. Салаева М.С., Халилова Ш.Т. Ўспиринларда креатив фикрлашни ривожлантиришнинг психологик жиҳатлари / “Психологияни ўқитишда замонавий инновацион ёндашув: психологлар фаолиятини ташкил этишда илғор технологиялар” номли Республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. Низомий номидаги ТДПУ “Психология” ўқув-илмий маркази. 2019 йил 24 декабрь. – Б.13-16.